



TILSHUNOSLIKDA INNOVATSION VA IQTISODIY NUTQIY BIRLIKLARNI O'RGANILISHINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Qarshiyeva Shahnoza Shuxrat qizi

Qarshi davlat texnika universitetida assistent

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tilshunoslikda innovatsion va iqtisodiy nutqiy birliklarning ilmiy-nazariy asoslari o'rganiladi. Ushbu birliklarning zamonaviy til tizimidagi shakllanishi, rivojlanishi hamda ularni lingvistik jihatdan tahlil qilishning asosiy yondashuvlari yoritilgan. Muallif mazkur birliklarning ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog'liqligini ilmiy asosda ochib beradi.*

Kalit so'zlar: *innovatsion birlik, iqtisodiy birlik, neologizm, struktur-semantik tahlil, lingvistik yondashuv, zamonaviy til.*

Аннотация: В статье рассматриваются научно-теоретические основы инновационных и экономических речевых единиц в языкоznании. Освещены становление и развитие этих единиц в системе современного языка, а также основные подходы к их лингвистическому анализу. Автор научно раскрывает связь этих единиц с социально-экономическими факторами.

Ключевые слова: инновационная единица, экономическая единица, неологизм, структурно-семантический анализ, лингвистический подход, современный язык.

Abstract: This article studies the scientific and theoretical foundations of innovative and economic speech units in linguistics. The formation and development of these units in the modern language system, as well as the main approaches to their linguistic analysis, are discussed. The author scientifically reveals the connection of these units with socio-economic factors.

Keywords: innovative unit, economic unit, neologism, structural-semantic analysis, linguistic approach, modern language.

Zamonaviy til taraqqiyotining ajralmas qismi bo'lgan innovatsion va iqtisodiy nutqiy birliklar insoniyat faoliyatining ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy sohalarida chuqur ildiz otmoqda. Texnologik yutuqlar, global moliyaviy tizimdag'i o'zgarishlar, yangi g'oyalar va mahsulotlarning paydo bo'lishi natijasida har kuni





tilga yangi birliklar qo'shilib boradi. Bunday birliklarning lingvistik tahlili ularning semantik va strukturaviy xususiyatlarini chuqur o'rganish imkonini beradi.

Innovatsion nutqiy birliklar – zamonaviy fan-texnika, texnologiya va jamiyatdagi yangilanishlarni ifodalovchi leksik birliklardir. Masalan: startup, blockchain, AI, digital economy kabi atamalar zamonaviy ingliz tilida keng qo'llanilmoqda.

Iqtisodiy nutqiy birliklar esa iqtisodiyot, moliya, biznes, menejment sohalariga oid termin va atamalarni o'z ichiga oladi. Ular har bir milliy tilning so'z boyligini boyitadi va iqtisodiy tafakkurni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Innovatsion birliklarning shakllanishiga sabab bo'luvchi asosiy omillar:

1. Texnologik taraqqiyot – yangi qurilmalar, dasturiy ta'minot va ilmiy yutuqlar asosida paydo bo'lgan atamalar. (Masalan: nanobot, quantum computing)

2. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari – internet, sun'iy intellekt, ijtimoiy tarmoqlar asosida yaratilgan birliklar. (Masalan: chatbot, influencer)

3. Iqtisodiy islohotlar va raqamli transformatsiya – yangi iqtisodiy mexanizmlar va tizimlarning paydo bo'lishi natijasida tilga kirib kelgan birliklar. (Masalan: fintech, gig economy)

4. Madaniy globalizatsiya – boshqa madaniyatlar bilan almashinuv natijasida paydo bo'lgan birliklar. (Masalan: coworking, hackathon)

5. Ta'lif va fan rivoji – ilmiy doiralar va oliy o'quv yurtlarida keng qo'llaniladigan yangicha atamalar. (Masalan: MOOC – massive open online course)

Lingvistik yondashuvlar va tahlil asoslariaga agar e'tibor qaratsak:

Innovatsion va iqtisodiy birliklarni o'rganishda quyidagi lingvistik yondashuvlar qo'llaniladi:

Struktur-semantik yondashuv – birliklarning ichki tuzilishi, sintaktik shakli va semantik yuklamasi tahlil qilinadi;

Kognitiv yondashuv – birliklarning inson tafakkuri va konseptual tizimdagi roli ochib beriladi;

Pragmatik yondashuv – birliklarning aloqa jarayonidagi funksional ahamiyati o'rganiladi;

Sotsiolingvistik yondashuv – birliklarning ijtimoiy qatlamlar, yosh guruhlari va matbuotda qo'llanishi o'rganiladi.

Masalan, outsourcing atamasi ingliz tilidan o'zbek tiliga to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinib qilinib kirgan, biroq semantik o'zgarishlarga ham uchragan.

Innovatsion birliklarning paydo bo'lishiga quyidagi omillar sabab bo'ladi:





1. Texnologik taraqqiyot (masalan: smart city, fintech);
2. Raqamli transformatsiya va internet tili;
3. Global iqtisodiy jarayonlar;
4. Media va ijtimoiy tarmoqlar (YouTube, TikTok orqali kirib kelgan birliklar).

Bu birliklar nafaqat ingliz tilida, balki o‘zbek tilida ham faol tarzda o‘z o‘rnini topmoqda. Jumladan, investitsiya, bozor iqtisodiyoti, kredit reytingi, bitkoin kabi birliklar kundalik nutqqa singib bormoqda. Innovatsion va iqtisodiy nutqiy birliklar zamonaviy tilshunoslikning dinamik rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biridir. Ularni o‘rganish til tizimining boyishini, ijtimoiy taraqqiyotdagi aksini va global jarayonlar bilan uyg‘unligini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Ularning ilmiy-nazariy tahlili esa zamonaviy lingvistikaning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Yangi iqtisodiy g‘oyalalar jamiyat va iqtisodiyotning o‘sishiga katta hissa qo‘shadi. Ushbu g‘oyalalar, zamonaviy texnologiyalar, ijtimoiy ehtiyojlar va ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan bo‘lib, ular yangi yondashuvlar va strategiyalarni yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Yangi iqtisodiy g‘oyalarni ilgari surishda bir nechta vositalar mavjud bo‘lib, ularning samarali amalga oshirilishi uchun hamkorlik va integratsiya zarur.

1. Innovatsion texnologiyalar

Innovatsion texnologiyalar yangi iqtisodiy g‘oyalarni amalga oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Bugungi kunda texnologiyalar iqtisodiy o‘zgarishlarni tezlashtirish va global miqyosda iqtisodiy inqiloblarni amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Internet, sun‘iy intellekt (AI), blokcheyn, bulutli hisoblash va boshqa raqamli texnologiyalar innovatsion iqtisodiy g‘oyalarni amalga oshirishda yordam beradi. Masalan, fintech, e-commerce kabi yangi g‘oyalarni raqamli texnologiyalar orqali shakllanadi va rivojlanadi.

Yashil texnologiyalar (Green Technologies): Ekologik barqarorlikni ta‘minlash uchun ishlab chiqilgan yangi texnologiyalar, masalan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va chiqindilarni qayta ishslash tizimlari iqtisodiy o‘sishning muhim qismini tashkil qiladi.

2. Ta‘lim va ilmiy hamkorlik

Yangi iqtisodiy g‘oyalarni ilgari surish uchun ta‘lim va ilmiy sohada hamkorlik zarur. Talabalar, tadqiqotchilar va professional tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlik yangi bilimlarni rivojlantirish va iqtisodiy g‘oyalarni amalga oshirishga turki beradi. Universitetlar va kompaniyalar o‘rtasidagi hamkorlik yangi innovatsion yechimlar yaratishga yordam beradi. Masalan, universitetlar ilmiy-tadqiqot





markazlari va laboratoriyalar yaratib, yangi texnologiyalarni ishlab chiqsa, kompaniyalar ularni amaliyotga tatbiq qiladi.

Xalqaro ilmiy va ta'limiy hamkorlik yangi g'oyalarni global miqyosda amalgam oshirishga imkon beradi. O'zbekiston va boshqa davlatlar o'rtaida ilmiy hamkorlik orqali yangi iqtisodiy g'oyalarni birgalikda ishlab chiqilishi mumkin.

3. Marketing va muloqotda integratsiya

Yangi iqtisodiy g'oyalarni ilgari surishda marketing va kommunikatsiya sohasida integratsiya zarur. Raqamli marketing, media kampaniyalari va brend yaratish orqali yangi g'oyalarni ommaga taqdim etiladi.

Raqamli marketing vositalari, sosial tarmoqlar, bloglar va video platformalar orqali yangi iqtisodiy g'oyalarni ommaga taqdim etiladi. Media platformalari orqali keng ommaga yangiliklar etkazilishi mumkin. Ommaviy kompaniyalar va reklama orqali yangi iqtisodiy g'oyalarni jamiyatda keng qo'llab-quvvatlanadi. Bu integratsiya orqali iqtisodiy g'oyalarni haqida ma'lumot tarqatiladi va jamiyatda ular haqida ijobjiy fikrlar shakllanadi.

4. Biznes inkubatorlari va akseleratorlar

Startaplarni rivojlantirish va yangi iqtisodiy g'oyalarni qo'llab-quvvatlash uchun biznes inkubatorlari va akseleratorlar muhim o'rinni tutadi. Bu tizimlar yangi g'oyalarni tez va samarali rivojlantirish uchun zarur resurslarni taqdim etadi. Yangi g'oyalarni va startaplarni qo'llab-quvvatlash uchun tashkil etilgan inkubatorlar biznes modelini shakllantirish va resurslarni jalb qilishda yordam beradi. Yangi bizneslarni tezlashtirish va ularni rivojlantirish uchun akseleratorlar orqali mentorlik, resurslar va qo'llab-quvvatlash taqdim etiladi.

5. Crowdfunding va investitsiyalar

Yangi iqtisodiy g'oyalarni amalga oshirish uchun moliyaviy resurslar zarur. Crowdfunding va venture capital kabi vositalar orqali moliyaviy qo'llab-quvvatlash osonlashadi. Internet platformalari orqali ommaviy mablag' yig'ish (crowdfunding) yangi iqtisodiy g'oyalarni amalga oshirishda keng qo'llaniladi. Bu vosita orqali kichik va o'rta bizneslar uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlash taqdim etiladi. Startaplar va innovatsion bizneslar uchun venture capital (investitsiyalar) yangi iqtisodiy g'oyalarni amalga oshirishga yordam beradi.

Xalqaro hamkorlik yangi iqtisodiy g'oyalarni global miqyosda ilgari surish imkoniyatini yaratadi. Davlatlar o'rtaida iqtisodiy siyosat, savdo va investitsiyalarni osonlashtirish orqali yangi g'oyalarni amalga oshiriladi. Xalqaro investitsiyalar yangi iqtisodiy g'oyalarni amalga oshirishda muhim rol o'yaydi. Xalqaro sarmoyalar orqali yangi texnologiyalar va biznes g'oyalarni qo'llab-





quvvatlash mumkin. Xalqaro savdo shartnomalari va raqobatbardoshlikni oshirish orqali yangi iqtisodiy g‘oyalar dunyo bo‘ylab tarqatilishi mumkin. Yangi iqtisodiy g‘oyalarni amalga oshirishda hamkorlik va integratsiya muhim ahamiyatga ega. Ular turli sohalarda, tashkilotlar va jamiyat a’zolari o‘rtasida bir-birini qo‘llab-quvvatlashni va resurslarni samarali taqsimlashni ta’minlaydi. Innovatsion g‘oyalar muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun turli darajalarda hamkorlik va integratsiya talab etiladi. Katta texnologik kompaniyalar va kichik startaplar o‘rtasida hamkorlik yangi innovatsiyalarni yaratishda katta ahamiyatga ega. Ilmiy-tadqiqot markazlari va biznes sektori o‘rtasidagi hamkorlik iqtisodiy yangiliklarni tezroq amalga oshirishga yordam beradi. Yangi iqtisodiy g‘oyalarni amalga oshirish uchun investitsiya tarmoqlari, banklar va startap inkubatorlari o‘rtasidagi hamkorlik zarur. Crowdfunding va venture capital kabi vositalar orqali moliyaviy qo‘llab-quvvatlash osonlashadi.

Hukumatlar yangi g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash uchun siyosiy qo‘llab-quvvatlash vositalarini taqdim etadi, xususiy sektor esa innovatsiyalarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi. Yangi iqtisodiy g‘oyalarni amalga oshirishda hamkorlik va integratsiya muhim o‘rin tutadi. Ular texnologiyalar, ilm-fan, biznes, hukumat va ijtimoiy sohalarda o‘zaro hamkorlikni ta’minlaydi va resurslarni samarali taqsimlashga yordam beradi. Innovatsion iqtisodiy g‘oyalarni amalga oshirish uchun bu sohalar o‘rtasidagi samarali hamkorlik va integratsiya jamiyatda yangi g‘oyalar va texnologiyalarni ilgari surishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаева Н. М. Инновационные процессы в языке: теория и практика. — Самарканд: SIU, 2021. — 130 с.
2. Alisultanova Z. A. Economic Discourse: Linguistic Features of Innovation Terms in English and Russian // International Journal of English Linguistics. — 2019. — Vol. 9, No. 4. — P. 120–128.
3. Болгарская Н. А. Язык и экономика: лингвистический аспект экономических терминов. — М.: Наука, 2015. — 212 с.
4. Crystal D. Language and the Internet. — Cambridge: Cambridge University Press, 2006. — 290 p.
5. Кузнецова И. А. Современная экономическая терминология в английском языке: проблемы и тенденции // Вестник МГУ. Сер. 9. Филология. — 2017. — № 3. — С. 45–52.



6. McCarthy M. Vocabulary and Language Teaching. — London: Longman, 1990.—247 p.

7. Назарова С. Р. Неологизмы в современном английском языке: инновационные и экономические аспекты // Молодой ученый. — 2020. — № 15. — С. 330–333.

